



EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA "YASHIL" IQTISODIY SIYOSATNING O'RNI VA AHAMIYATI

THE ROLE AND IMPORTANCE OF "GREEN" ECONOMIC POLICY IN ENSURING ECOLOGICAL SUSTAINABILITY

¹Yuldasheva Umida
Asanaliyevna

²Gulmurodova Marjona
Olimjon qizi

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Xalqaro moliya" kafedrası
professori, DSc., ²Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Moliya" fakulteti talabasi.

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada iqtisodiy o'sish mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda markaziy omil sifatida ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanish jarayonida ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash hamda barqaror tinchlikni saqlash kabi kompleks omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mazkur muammolarni hal qilish va samarali boshqarish yo'lida "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasiga asoslangan transformatsiyalar va uning tamoyillarini integratsiyalashgan holda qo'llash dolzarb vazifa sifatida ko'riladi.

Eng. - This article considers economic growth as a central factor in ensuring sustainable development of the country. At the same time, it emphasizes the critical importance of maintaining ecological balance, rational use of natural resources, strengthening social equity, and preserving sustainable peace within the process of economic development. Furthermore, addressing these complex challenges and ensuring effective governance require the integrated application of transformations based on the "green" economy concept and its principles, which is regarded as a pressing priority. This approach serves to promote the ecological sustainability and social justice of the national economy.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *yashil iqtisodiyot, iqtisodiy faollik, resurs, samaradorlik, tabiiy resurs, iqtisodiy o'sish, investitsiya, tejamkorlik, barqarorlik.*

❖ *green economy, economic activity, resource, efficiency, natural resource, economic growth, investment, savings, sustainability.*

Kirish.

So'nggi yillarda global miqyosda iqlim o'zgarishi, ekologik muvozanatning buzilishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi kabi muammolar tobora keskin tus olmoqda. Ushbu holatlar insoniyat taraqqiyoti uchun jiddiy tahdidlar tug'dirayotgani sababli, xalqaro hamjamiyat barqaror rivojlanish konsepsiyasiga asoslangan yangi iqtisodiy model — yashil iqtisodiyot tamoyillarini ilgari surmoqda.

Yashil iqtisodiyot — bu atrof-muhitga nisbatan kamroq darajada zarar yetkazgan holda iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga yo'naltirilgan kompleks iqtisodiy tizimdir. Bu modelda iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik va ijtimoiy adolat o'zaro uyg'unlashtiriladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi (UNEP) tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, yashil iqtisodiyot — bu "kam uglerodli, resurslarga

tejamkor va ijtimoiy inklyuziv" iqtisodiy faoliyat shakli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi ham yashil iqtisodiyot tamoyillarini milliy rivojlanish strategiyasiga integratsiyalash yo'lida muhim qadamlar qo'ymoqda. Xususan, 2023-yilda qabul qilingan "Yashil iqtisodiyotga o'tish konsepsiyasi" mazkur yo'nalishda asosiy strategik va huquqiy asos sifatida e'tirof etiladi. Ushbu hujjat respublika miqyosida ekologik xavfsizlikni ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish va iqlim o'zgarishiga moslashuvchanlikni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini belgilaydi.

Tarixiy statistik ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, XX asr davomida global demografik va iqtisodiy o'zgarishlar beqiyos darajada bo'lgan. 1900-yilda Yer aholisining soni 1,6 milliard kishini tashkil etgan bo'lsa, 2000-yilga kelib bu ko'rsatkich 6 milliarddan oshdi. 2017-yilga kelib esa dunyo aholisi 7,6 milliard nafarga yetdi. Shu bilan birga, o'rtacha umr ko'rish davomiyligi ikki baravarga yaqin oshdi, global kambag'allik darajasi esa uch martadan ortiq kamaydi. Bu jarayonlar asosan fan-texnika yutuqlari va sanoat ishlab chiqarishining kengayishi hisobiga amalga oshdi.

Shu bilan birga, iqtisodiy o'sish va aholining ko'payishi ekologik muvozanatga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. XX asr davomida dunyo aholisi 3,6 barobarga ortgan bo'lsa, yalpi ichki mahsulot hajmi 18 martadan ko'proqqa oshgan [1]. Bunday nomutanosib o'sish ekologik yuklamaning keskin ortishiga, iqlim tizimining beqarorlashuviga va biotizimlarning degradatsiyasiga olib kelmoqda.

Shunday qilib, yashil iqtisodiyot modeli – bu nafaqat ekologik muammolarga javob, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlovchi asosiy yo'nalish sifatida ko'rilmokda. O'zbekiston uchun bu yo'nalish strategik ahamiyatga ega bo'lib, ekologik xavfsizlik, energiya samaradorligi va

innovatsion texnologiyalar asosida barqaror taraqqiyotga erishish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Yashil iqtisodiyot g'oyasini shakllantirish va rivojlantirishda dunyo miqyosidagi mashhur olimlar muhim rol o'ynagan. Ulardan biri amerikalik olim Herman Deily bo'lib, u barqaror iqtisodiyot konsepsiyasini ilgari surgan. Deilyning fikricha, iqtisodiy o'sish tabiiy resurslar bilan cheklangan bo'lishi kerak, chunki atrof-muhitning imkoniyatlari cheksiz emas [1].

Hazel Xendersen esa an'anaviy iqtisodiy ko'rsatkichlarga tanqidiy yondashib, atrof-muhit va ijtimoiy kapitalni hisobga oluvchi yangi iqtisodiy baholash usullarini taklif qilgan. U yalpi ichki mahsulot (YaIM) kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar iqtisodiy rivojlanishning to'liq aks ettirilmasligini ta'kidlaydi. Nobel mukofoti sovrindori Amartya Sen yashil iqtisodiyotni inson salohiyati, huquqlari va imkoniyatlari bilan bog'laydi. U kambag'allikka qarshi kurashishda atrof-muhitni muhofaza qilish muhimligini ta'kidlaydi, chunki kambag'al qatlam ko'pincha tabiiy resurslarga bevosita bog'liq bo'ladi [2].

Nobel mukofoti sovrindori Amartya Sen yashil iqtisodiyotni inson salohiyati, huquqlari va imkoniyatlari bilan bog'laydi. U kambag'allikka qarshi kurashishda atrof-muhitni muhofaza qilish muhimligini ta'kidlaydi, chunki kambag'al qatlam ko'pincha tabiiy resurslarga bevosita bog'liq [3].

Germaniyalik olim Karl Vilhelm Kapp ekologik iqtisodiyotning asoschilaridan biri sifatida tan olingan. U bozor iqtisodiyotining atrof-muhit va jamiyatga bo'lgan salbiy ta'sirini tanqid ostiga olgan va iqtisodiy qarorlar qabul qilishda ushbu omillarni hisobga olish zarurligini ta'kidlagan [4].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va

sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

So'nggi yuz yillikda dunyo aholisi soni va iqtisodiy faolligining oshishi natijasida global ekologik muammolar keskin kuchaydi. Masalan, 2000 yilda okeanlarning oksidlanish darajasi 1900 yilga nisbatan 1,2 martaga, tropik o'rmonlarning yo'qolishi 6 martaga, atmosferaga chiqarilgan karbonat angidrid miqdori esa 1,5 martaga oshgan [5]. BMT Taraqqiyot Dasturining (UNDP) ta'kidlashicha, hozirgi iqtisodiy model o'zgartirilmasa, 2050-yilga kelib atrof-muhitdagi salbiy o'zgarishlar natijasida 5 mln. kishi vafot etishi prognoz qilinmoqda [6].

Global iqtisodiy o'sish resurslardan foydalanishni keskin oshirib, ularning kamayishiga sabab bo'lmoqda. Aksariyat tabiiy resurslar nazariy jihatdan mo'l-ko'l bo'lsa-da, ularni qazib olish va foydalanish hajmining oshishi natijasida zaxiralar qisqarib bormoqda. Shu bois, resurslardan samarali foydalanish va yangi konlarni izlab topish dolzarb masalaga aylangan. Rivojlanayotgan davlatlar ekologik tizimni saqlab qolish uchun har yili 70–100 mlrd. AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritishi zarur. Biroq ularning investitsion salohiyati pastligi sababli, jalb etilayotgan mablag'lar asosan yer osti boyliklarini qazib olish va qayta ishlashga yo'naltirilmoqda.

UNEP tadqiqotlariga ko'ra, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish orqali insoniyat 2050-yilga qadar har yili 2 trln. dollar iqtisodiy foyda olishi mumkin. Shu davrda dunyo aholisi 28 foizga ko'payadi, resurslardan aholi jon boshiga foydalanish esa 71 foizga ortadi. Aks holda, yillik resurs iste'moli 85 mlrd. tonnadan 186 mlrd. tonnagacha yetishi mumkin. Shu sababli, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish eng maqbul yo'l hisoblanadi. Masalan, AQSH 214 766 MVt, Xitoy 545 206 MVt, Braziliya 122 951 MVt, Rossiya 51 747 MVt, Kanada esa 96 636 MVt qayta tiklanadigan energiya quvvatlarini yaratgan.

Biroq Afrika mintaqasida bu ko'rsatkich 38 192 MVt bilan eng past darajada qolmoqda [7].

Resurslardan oqilona foydalanish, sof texnologiyalarni joriy etish, yashil iqtisodiyotga o'tish bugungi kunda xalqaro forumlar muhokamasining markazida turibdi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish har bir mamlakatda tabiiy va inson kapitaliga, iqtisodiy rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq. Ushbu iqtisodiy model ekologik muhofaza, resurslardan samarali foydalanish, ijtimoiy integratsiya va barqaror rivojlanishni o'z ichiga oladi [8]. 1972-yilda Stokgolmda o'tkazilgan konferensiyada ekologik rivojlanishga oid 26 tamoyil qabul qilingan bo'lib, 2012 yilda esa UNEP tomonidan "Yashil iqtisodiyot"ga o'tishning asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan [9].

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tishda asosiy dastaklar sirasiga quyidagilar kiradi:

Ma'muriy dastaklar.

Korxonalarga atrof-muhitga zarar yetkazmaslik uchun me'yoriy-huquqiy cheklovlar qo'llaniladi. Bu cheklovlar ma'muriy usulda amalga oshiriladi va qoidabuzarliklarga nisbatan sanksiyalar shaklida qo'llanishi mumkin. Masalan, sanoatda moddalarni taqiqlash, samarali standartlar joriy qilish orqali "yashil" investitsiyalarni rag'batlantirish, ekologik toza mahsulotlar bozorini rivojlantirish mumkin. Ma'muriy usullar sanoatda muayyan ekologik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi.

Yevropa mamlakatlarida bu usullardan keng foydalaniladi. Masalan, 2014-yildan boshlab Yevropa Ittifoqida chiroqlarni sotish taqiqlangan, 2009–2017-yillarda esa energiya talabchan maishiy texnika bozorini qisqartirish dasturlari amalga oshirilgan. Bu me'yorlar mahsulotlar ishlab chiqarish va iste'mol qilish standartlariga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Yevropa Ittifoqida elektr va elektronika uskunalarni utilizatsiya qilish, xavfli moddalarni cheklash va kimyoviy moddalarni baholash bo'yicha qoidalar qabul qilingan.

Iqtisodiy dastaklar.


"Iqtisodiy dastaklar" — bu yashil iqtisodiyotga o'tishda iqtisodiy subyektlarni moliyaviy rag'batlantirish yoki jazolash orqali atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli bo'lishga undovchi vositalardir. Ularga ekologik soliqlar va yig'imlar, chiqindilarni qayta ishlash (utilizatsiya) dasturlari, ekologik subsidiyalar va kompensatsiya to'lovlari, shuningdek, javobgarlik qoidalari va savdo ruxsatnomalari kiradi. Bu vositalar orqali korxonalar ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga, resurslardan samarali foydalanishga va chiqindilarni kamaytirishga iqtisodiy manfaat ko'zlab intiladilar. Ular "yashil iqtisodiyot"ga o'tishda iqtisodiy subyektlarni moliyaviy rag'batlantirish orqali qo'llab-quvvatlaydi.

Axborot dastaklari.

Axborot vositalari aholining yashil iqtisodiyot bo'yicha xabardorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa iqtisodiy va ekologik

muammolarni oldini olishga yordam beradi. Ko'plab mamlakatlarda ixtiyoriy sertifikatlash va mahsulotlarni belgilash keng tarqalgan bo'lib, ba'zilarida bu qonuniy talab darajasiga ko'tarilgan.

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga ko'ra, Koreya Respublikasida 1992-yildan energiya samaradorligi standartlari va markirovkalash tizimi joriy etilgan. Bu tizimda energiya iste'moli yuqori mahsulotlar 1 dan 5 gacha baholanadi. Minimal standartlarga javob bermaydigan mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish taqiqlanadi. KEA (Korea Energy Agency) tomonidan ro'yxatdan o'tgan mahsulotlar majburiy markirovkalashga ega bo'ladi. Bu iste'molchilarni energiya tejamkor mahsulotlarni tanlashga undaydi va energiya tejovchi texnologiyalarni rivojlantirishni tezlashtiradi.



1-rasm. Sohalarning 2030-yilga qadar issiqxona gazlarini chiqarish hajmini qisqartirishga qo'shadigan potentsial hissasi (mlrd. tonna CO₂ ekvivalentida) [10]

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) 2030-yilga qadar issiqxona gazlari chiqarilishini kamaytirishdagi potentsial hissasi sezilarli. AKT yordamida qishloq xo'jaligida hosildorlikni 30 foizga, ya'ni yiliga har gektardan 900 kilogrammgacha ko'proq hosil olish, 300 trln. litr suvni oqilona usullar bilan tejash hamda yiliga 25 mlrd. barrel neftni iqtisod qilish imkoniyatlari yuzaga keladi.

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tishda inson kapitalini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu, avvalo, ekologik jihatdan to'g'ri yo'naltirilgan, resurslarni tejash va tabiatni asrashga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni yaratish va qo'llash imkoniyatiga ega kadrlarni tayyorlashni talab qiladi. 2010-yilda UNEPning "Green Jobs" hisobotida har bir yangi ish o'rni iqtisodiy barqarorlikni oshirishga xizmat qilishi zarurligi

ta'kidlangan. Ushbu hisobotda barqaror rivojlanish muammolarini o'rganishni kasbiy tayyorgarlik dasturlariga kiritish zarurligi aytiladi.

XMT ma'lumotlariga ko'ra, 2030-yilga kelib "yashil iqtisodiyot" sohasida 24 mln. yangi ish o'rinlari yaratilishi mumkin. Bu ish o'rinlari asosan energetika sohasida yangi texnologiyalarni qo'llash, elektromobillardan foydalanish va binolarning energiya samaradorligini oshirish hisobiga paydo bo'ladi. "Yashil" ish o'rinlari iqtisodiyotning an'anaviy va "yashil" tarmoqlarida atrof-muhitni saqlash yoki tiklashga yordam beradi.

"Yashil" ish o'rinlari energiya va xom-ashyodan samarali foydalanish, issiqxona gazlarini kamaytirish, chiqindilarni minimallashtirish, ekotizimlarni himoya qilish va iqlim o'zgarishlariga moslashish kabi muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. UNEP tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyaga ko'ra, "yashil" ish o'rinlari iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lib, issiqxona gazlarini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish, bio xilma-xillikni saqlash va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirishni ta'minlaydi.

Bunday faoliyat aholi farovonligini oshirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga xizmat qiladi. Issiqxona gazlarini ko'p chiqaruvchi mamlakatlarda mehnat bozoridagi o'zgarishlar malakali kadrlar talabini oshiradi. 2011-yilda XMT va CEDEFOP tomonidan tayyorlangan hisobotda 21 mamlakatda "yashil" sohada zarur ko'nikmalar bilan ta'lim standartlari orasida katta farq borligi ko'rsatildi. Bu nomuvofiqlik "yashil" investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda. Masalan, Keniyada shamol elektrostansiyasini qurish uchun zarur mutaxassislarning yetishmasligi sabab, xalqaro mehnat bozoridan kadrlar jalb etilgan.

Yil sayin "yashil iqtisodiyot" uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan

qonunchilikni qabul qilayotgan mamlakatlar soni ortmoqda. 2016-yilda XMT tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma 27 mamlakatdan 19 tasida ushbu sohada zarur ko'nikmalar bo'yicha manfaatdor tomonlar o'rtasida muzokaralar boshlanganligi ma'lum bo'ldi.

Barqaror siyosatga ega va xususiy sektor bilan samarali hamkorlik qiluvchi texnik va kasbiy ta'lim muassasalariga ega mamlakatlarda bu muammo kamroq kuzatiladi. Masalan, Germaniya va Fransiyada qurilish sektorini "yashillashtirish" maqsadida o'quv dasturlariga o'zgartirishlar kiritilib, yangi sertifikatlash kurslari joriy etilgan, bu mehnat bozoridagi yangi talablarni qondirishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa va takliflar.

Mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish konsepsiyasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorda belgilangan ustuvor yo'nalishlardan biri "yashil iqtisodiyot"ni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqishdir. Bu yo'nalishning muhim sohalaridan biri "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini ta'lim va fanga integratsiya qilishga qaratilgan [11].

Shu bilan birga, mamlakatimizda yanada barqaror va "yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun mavjud ekologik muammolar va iqtisodiy o'sishni sekinlashtiruvchi boshqa xavf omillari ustida faol ishlashi zarur. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlaydi, balki iqtisodiy rivojlanishni ham barqarorlashtiradi. Bu yo'lda davlat va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari, innovatsiyalar va ta'lim muhim rol o'ynaydi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish barqaror kelajakni ta'minlash, sog'lom hayot sharoitlarini yaratish hamda resurslarni tejash maqsadida dolzarb va ustuvor masala bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Daly, H. *Beyond Growth: The Economics of Sustainable Development*. – Boston: Beacon Press, 1996. – 253 p.
2. Henderson, H. *Building a Win-Win World: Life Beyond Global Economic Warfare*. – San Francisco: Berrett-Koehler Publishers, 1996. – 400 p.
3. Sen, A. *Development as Freedom*. – New York: Alfred A. Knopf, 1999. – 384 p.
4. Kapp, K. W. *The Social Costs of Private Enterprise*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1950. – 287 p.
5. UNEP. (2015), Publication UNEP. United Nations Environment Program. <http://www.unep.org/climatechange/>
6. IRENA (2017), Renewable capacity statistics 2017, International Renewable Energy Agency (IRENA), www.irena.org/Publications
7. UN. Report for the UN secretary-general "An action agenda for sustainable development". 2014. -P. 1-2.
8. United Nations Environment Programme and Intergovernmental Panel on Climate Change. Special Report on Renewable Energy Sources and Climate Change Mitigation. - P. 7.
9. Декларация конференции ООН по проблемам окружающей человека среды от 16.06.1972 // Консультант плюс 4012.00.32 2002-2013.
10. SMARTer2030 – ICT Solutions for 21st Century Challenges.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori. 2019-yil 5-oktabr.